

## Farg'ona viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025- yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Farg'ona viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiyligi 19 992,2 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 19 685,0 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 231,1 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 76,1 mlrd so'mni tashkil qildi.

### Farg'ona viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



### II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025-yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Farg'ona t (1 792,3 mlrd so'm), Beshariq (1 548,0 mlrd so'm), Oltiariq (1 474,1 mlrd so'm), Rishton (1 425,1 mlrd so'm), Quva (1 411,6 mlrd so'm) va Bag'dod (1 356,5 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qo'qon sh (174,5 mlrd so'm), Marg'ilon sh (270,8 mlrd so'm) va So'x tumanini (374,0 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.



	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>19 992,2</b>	<b>104,8</b>
Farg'ona sh	557,2	100,4
Qo'qon sh	174,5	100,2
Quvasoy sh	1 058,4	104,2
Mapg'ilon sh tumanlar:	270,8	102,2
Oltiariq	1 474,1	100,3
Qo'shtepa	1 210,5	103,4
Bag'dod	1 356,5	106,9
Buvayda	1 221,2	105,5
Beshariq	1 548,0	105,4
Quva	1 411,6	107,4
Uchko'prik	1 114,1	104,7
Rishton	1 425,1	105,6
So'x	374,0	103,6
Toshloq	1 013,0	105,6
O'zbekiston	1 298,6	106,4
Farg'ona t	1 792,3	103,4
Dang'ara	1 112,3	108,2
Furqat	793,8	105,9
Yozyovon	786,2	104,7

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Dang'ara (108,2 %), Quva (107,4 %), Bag'dod (106,9 %), O'zbekiston (106,4 %) va Furqat (105,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Qo'qon sh (100,2 %), Oltiariq (100,3 %), Farg'ona sh (100,4 %), Marg'ilon sh (102,2 %) va Qo'shtepa (103,4 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

### III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2025- yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 19 479,5 mlrd so'mni yoki 2024 yilning mos davriga nisbatan 104,8 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 10 666,4 mlrd so'mni (106,5 %), chorvachilik mahsulotlari 8 813,0 mlrd so'mni (102,4 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Farg'ona t (1 714,9 mlrd so'm), Beshariq (1 478,2 mlrd so'm), Oltiariq (1 462,6 mlrd so'm) va Rishton (1 411,4 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qo'qon sh (162,8 mlrd so'm), Marg'ilon sh (269,0 mlrd so'm) va So'x tumanini (369,0 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Dang'ara (107,9 %), Quva (107,6 %), Bag'dod (106,8 %) va O'zbekiston (106,3 %) tumanlarida qayd etildi. Farg'ona sh (100,0 %) Oltiariq t (100,6 %), Qo'qon sh (101,2 %) da esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

### Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 64,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 31,8 % i fermer xo'jaliklariga, 4,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

### Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Farg'ona (1 031,3 mlrd so'm), Oltiariq (675,8 mlrd so'm), Bag'dod (581,3 mlrd so'm), Dang'ara (577,5 mlrd so'm) va Beshariq (576,8 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qo'qon sh (84,5 mlrd so'm), Marg'ilon sh (200,7 mlrd so'm) va So'x (205,9 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Rishton t (109,0 %), Quvasoy sh (108,0 %), Buvayda t (104,7 %), Qo'qon (104,6 %) shaharida qayd etildi. Farg'ona sh (96,0 %), O'zbekiston (96,8 %), Toshloq (100,9 %) va Yozyovon (101,0 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 95,2 ming tonna go'sht, 536,5 ming tonna sut, 324,9 mln dona tuxum, 1 133 tonna qirqib olingan jun va 3 839,7 tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,1 % ni, sog'ib olingan sut – 102,8 % ni, olingan tuxum – 111,6 % ni, qirqib olingan jun – 103,6 % ni hamda ovlangan baliqlar – 104,8 % ni tashkil qildi.

2025-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 5,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 75,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 19,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 10,2 % i fermer xo'jaliklari, 88,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

**2025- yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdag'i  
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-iyun 2025- y	O'sish sur'ati % da
<b>Go'sht (tirik vaznda), ming tonna</b>	<b>95,2</b>	<b>102,1</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	5,0	113,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	71,6	101,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	18,6	101,4
<b>Sut, ming tonna</b>	<b>536,5</b>	<b>102,8</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	54,5	118,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	474,3	100,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	7,7	125,1
<b>Tuxum, mln dona</b>	<b>324,9</b>	<b>111,6</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	80,6	122,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	185,0	100,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	59,3	142,6
<b>Jun, tonna</b>	<b>1 133</b>	<b>103,6</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	104	116,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 022	102,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	7	140,0
<b>Baliq, tonna</b>	<b>3 839,7</b>	<b>104,8</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	3276,0	104,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	150,5	94,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	413,2	111,8

Shu bilan birga, olingan tuxumning 24,8 % i fermer xo'jaliklariga, 56,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 18,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingen junning 9,2 % i fermer xo'jaliklari, 90,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 85,3 % i fermer xo'jaliklariga, 3,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 10,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

### **Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlari hajmi**

	<b>Go'sht (tirik vaznda), tonna</b>	<b>Sut, tonna</b>	<b>Tuxum, ming dona</b>
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>95 194,0</b>	<b>536 497,0</b>	<b>324 887,0</b>
Farg'ona sh	5 058,0	10 477,8	6 698,3
Qo'qon sh	1 027,4	2 904,0	2 715,9
Quvasoy sh	3 637,2	20 492,2	43 501,9
Mapg'ilon sh	3 117,4	2 762,8	3 930,2
tumanlar:			
Oltiariq	6 218,7	45 533,6	12 434,5
Qo'shsteka	4 011,9	27 889,9	19 007,2
Bag'dod	6 174,4	38 425,2	22 204,7
Buvayda	4 889,8	35 706,4	12 837,0
Beshariq	4 238,5	44 461,0	57 173,7
Quva	5 456,5	35 155,8	9 294,5
Uchko'prik	4 916,5	28 829,2	23 740,4
Rishton	4 898,4	31 979,2	11 423,5
So'x	1 462,3	18 533,7	4 636,5
Toshloq	3 859,3	26 194,9	12 178,6
O'zbekiston	4 419,7	33 405,9	15 150,7
Farg'ona	21 404,2	41 601,8	13 370,9
Dang'ara	4 981,5	40 432,4	23 902,0
Furqat	2 741,3	29 785,6	19 532,3
Yozyovon	2 681,0	21 925,6	11 154,2

### **Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish**

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Beshariq (901,4 mlrd so'm), Rishton (899,4 mlrd so'm), O'zbekiston (795,0 mlrd so'm), Oltiariq (786,7 mlrd so'm) va Quva (784,3 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Marg'ilon sh (68,2 mlrd so'm), Qo'qon sh (78,2 mlrd so'm) va Farg'ona sh (97,6 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Farg'ona sh (114,4 %), Dang'ara (113,3 %), O'zbekiston (111,6 %), Quva (111,0 %) va Toshloq (108,9 %) tumanlarida qayd etildi. Qo'qon sh (98,6 %), Oltiariq (99,1 %), Marg'ilon sh (102,6 %) va Quvasoy sh (102,9 %) shaharlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.



**Hududlar kesimida yetishtirilgan donlar hajmi**

	tonna	o'sish sur'ati, % da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>776 594,0</b>	<b>106,8</b>
Farg'ona sh	937,5	103,6
Qo'qon sh	127,1	104,8
Quvasoy sh	7 394,9	119,3
Mapg'ilon sh	128,2	127,3
tumanlar:		
Oltiariq	38 412,7	87,9
Qo'shtepa	75 780,9	102,1
Bag'dod	59 631,2	113,8
Buvayda	61 540,9	108,2
Beshariq	70 135,9	105,6
Quva	54 900,6	113,3
Uchko'prik	42 537,6	110,0
Rishton	67 042,3	107,0
So'x	4 040,4	99,0
Toshloq	45 613,2	108,3
O'zbekiston	37 798,9	110,5
Farg'ona	43 638,1	104,3
Dang'ara	70 034,8	110,7
Furqat	45 523,3	107,1
Yozyovon	51 375,5	105,7

Yetishtirilgan don umumiy hajmining eng yuqori ulushi Qo'shtepa (9,8 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Beshariq (9,0 %), Dang'ara (9,0 %), Rishton (8,6 %), Bag'dod (7,7 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Qo'qon sh (0,0 %), Marg'ilon shahri (0,0 %) va Farg'ona sh (0,1 %), kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Marg'ilon sh (127,3 %), Quvasoy sh (119,3 %), Bag'dod (113,8 %), Quva (113,3 %), Dang'ara (110,7 %), O'zbekiston (110,5 %) Toshloq (108,3 %) va Buvayda (108,2 %) tumanlarida qayd etildi.



### Hududlar kesimida yetishtirilgan kartoshka hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>231 278,0</b>	<b>103,8</b>
Farg'ona sh	3 036,5	106,8
Qo'qon sh	4 048,6	246,0
Quvasoy sh	8 935,6	105,7
Mapg'ilon sh	2 664,5	124,4
tumanlar:		
Oltiariq	10 894,9	104,4
Qo'shtepa	14 679,3	102,2
Bag'dod	14 401,5	107,5
Buvayda	15 945,8	101,0
Beshariq	17 311,8	104,8
Quva	15 862,6	107,0
Uchko'prik	12 406,4	101,1
Rishton	9 008,4	98,8
So'x	13 082,1	101,6
Toshloq	17 227,0	103,1
O'zbekiston	15 108,5	89,6
Farg'ona	14 147,7	106,2
Dang'ara	11 730,7	101,7
Furqat	12 331,0	105,0
Yozyovon	18 455,1	102,9

Yetishtirilgan kartoshka umumiy hajmining eng yuqori ulushi Yozyovon (8,0 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Beshariq (7,5 %), Toshloq (7,4 %), Quva (6,9 %), Buvayda (6,9 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Marg'ilon sh (1,2 %), Farg'ona sh (1,3 %) va Qo'qon sh (1,8 %) kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qo'qon sh (246,0 %), Marg'ilon sh (124,4 %), Bag'dod (107,5 %), Quva (107,7 %), Farg'ona sh (106,8 %), Farg'ona (106,2 %) Furqat (105,0 %) va Beshariq (104,8 %) qayd etildi.



**Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi**

	tonna	o'sish sur'ati, % da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>511 840,0</b>	<b>104,5</b>
Farg'ona sh	5 617,8	100,8
Qo'qon sh	3 110,5	113,3
Quvasoy sh	13 465,7	121,1
Mapg'ilon sh	4 898,2	107,2
tumanlar:		
Oltiariq	64 011,2	100,3
Qo'shtepa	32 864,6	103,2
Bog'dod	30 917,8	103,5
Buvayda	37 880,2	104,5
Beshariq	30 893,3	106,1
Quva	34 404,5	111,0
Uchko'prik	29 424,8	107,3
Rishton	32 723,3	101,8
So'x	6 746,3	107,6
Toshloq	36 364,4	104,4
O'zbekiston	30 493,8	102,9
Farg'ona	48 345,7	102,4
Dang'ara	21 544,3	104,3
Furqat	23 474,9	105,2
Yozyovon	24 658,7	104,7

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Oltiariq tumani (12,5 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Farg'ona (9,4 %), Buvayda (7,4 %), Quva (6,7 %), Qo'shtepa (6,4 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Qo'qon sh (0,6 %), Marg'ilon sh (1,0 %) va Farg'ona sh (1,1 %) kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Quvasoy sh (121,1 %), Qo'qon sh (113,3 %), Quva (111,0 %), So'x (107,3 %), Uchko'prik (107,3 %), Marg'ilon sh (107,2 %), Beshariq (106,1 %) va Furqat (105,2 %) tumanlarida qayd etildi.

### Hududlar kesimida yetishtirilgan poliz ekinlari hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>44 897,0</b>	<b>105,8</b>
Farg'ona sh	105,0	5250,0
Qo'qon sh	217,4	112,1
Quvasoy sh	661,2	106,4
Mapg'ilon sh	0,0	0,0
tumanlar:		
Oltiariq	5 580,6	101,0
Qo'shtepa	5 195,2	84,7
Bag'dod	2 470,9	101,2
Buvayda	3 138,8	100,6
Beshariq	2 348,1	101,9
Quva	4 549,0	157,8
Uchko'prik	2 535,3	101,7
Rishton	2 734,4	101,9
So'x	0,0	0,0
Toshloq	3 166,1	110,3
O'zbekiston	3 386,0	108,8
Farg'ona	130,5	16,0
Dang'ara	3 519,7	131,3
Furqat	2 891,1	121,3
Yozyovon	2 267,7	103,7

Yetishtirilgan poliz ekinlari umumiy hajmining eng yuqori ulushi Oltiariq tumani (12,4 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Qo'shtepa (11,6 %), Quva (10,1 %), O'zbekiston (7,5 %), Toshloq (7,1 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar So'x (0,0 %), Marg'ilon (0,0 %) va Farg'ona (0,3 %) tuman va shaharlarida kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Farg'ona sh (5250,0 %), Quva (157,8 %), Dang'ara (131,3 %), Furqat (121,3 %), Qo'qon (112,1 %), Toshloq (110,3 %) O'zbekiston (108,8 %) va Quvasoy (106,4 %) shahar va tumanlarida qayd etildi.



### Hududlar kesimida yetishtirilgan meva va reravorlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>230 859,0</b>	<b>107,3</b>
Farg'ona sh	3 286,6	123,5
Qo'qon sh	2 952,9	86,7
Quvasoy sh	34 145,5	101,3
Mapg'ilon sh	2 034,6	98,8
tumanlar:		
Oltiariq	11 995,8	105,6
Qo'shtepa	11 452,7	111,8
Bag'dod	17 215,1	110,1
Buvayda	7 826,1	103,5
Beshariq	23 919,5	106,7
Quva	18 694,3	104,9
Uchko'prik	12 921,5	106,0
Rishton	25 115,2	103,1
So'x	3 983,7	110,9
Toshloq	8 403,7	114,4
O'zbekiston	24 719,4	117,1
Farg'ona	12 844,5	110,7
Dang'ara	4 222,5	123,1
Furqat	2 793,9	107,7
Yozyovon	2 331,5	113,8

Yetishtirilgan meva va rezavorlar umumiy hajmining eng yuqori ulushi Quvasoy (14,8 %) shahri hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Rishton (10,9 %), O'zbekiston (10,7 %), Beshariq (10,4 %), Quva (8,1 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Marg'ilon sh (0,9 %), Yozyovon (1,0 %) va Furqat (1,2 %) tumanlarida kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Farg'ona sh (123,5 %), Dang'ara (123,1 %), O'zbekiston (117,1 %), Toshloq (114,4 %) Yozyovon (113,8 %), Qo'shtepa (111,8 %), Farg'ona (110,7 %) va Bag'dod (110,1 %) tumanlarida qayd etildi.



### Hududlar kesimida yetishtirilgan uzum hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>2 957,0</b>	<b>108,0</b>
Farg'ona sh	13,7	105,4
Qo'qon sh	7,1	191,9
Quvasoy sh	112,0	149,3
Mapg'ilon sh	45,5	96,8
tumanlar:		
Oltiariq	1 328,5	100,8
Qo'shtepa	411,1	100,8
Bag'dod	21,3	130,7
Buvayda	124,8	113,5
Beshariq	15,5	119,2
Quva	60,3	118,2
Uchko'prik	38,5	116,3
Rishton	191,0	110,4
So'x	0,0	0,0
Toshloq	109,5	102,3
O'zbekiston	134,5	106,2
Farg'ona	274,1	145,6
Dang'ara	25,9	117,7
Furqat	25,6	119,1
Yozyovon	18,1	157,4

Yetishtirilgan uzum umumiyligi eng yuqori ulushi Oltiariq (44,9 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Qo'shtepa (13,9 %), Farg'ona (9,3 %), Rishton (6,5 %), Buvayda (4,2 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar So'x (0,0 %), Qo'qon (0,2 %) va Beshariq (0,5 %) shahar va tumanlarida kuzatildi. 2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qo'qon sh (191,9 %), Yozyovon (157,4 %), Quvasoy sh (149,3 %), Farg'ona (145,6 %), Bag'dod (130,7 %), Beshariq (119,2 %) Furqat (119,1 %) va Dang'ara (117,7 %) tumanlarida qayd etildi.



#### IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025- yilning 1- iyul holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 107,9 ming boshga yetdi, (2024- yilning 1-iyul holatiga nisbatan 2,1 % ga ko'p), sigirlar 402,5 ming boshga (2,2 % ga ko'p), qo'y va echkilar 958,5 ming boshga (2,7 % ga ko'p), parrandalar 9 025,7 ming boshga (3,2 % ga ko'p) yetdi.

#### 2025- yilning 1- iyul holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
<b>Yirik shoxli qoramollar</b>	<b>1 107,9</b>	<b>102,1</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	89,4	112,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1008,1	101,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	10,4	99,2
<b>shundan sigirlar</b>	<b>402,5</b>	<b>102,2</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	37,6	109,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	360,1	101,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4,8	122,9
<b>Qo'y va echkilar</b>	<b>958,5</b>	<b>102,7</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	97,2	106,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	853,0	102,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	8,3	105,6
<b>Otlar</b>	<b>10,9</b>	<b>103,3</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	3,0	112,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	7,7	100,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,2	89,1
<b>Parrandalar</b>	<b>9 025,7</b>	<b>103,2</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1 597,0	108,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	5 411,1	100,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 017,6	107,1

2025- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,1 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 91,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib

o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 9,3 % i fermer xo'jaliklariga, 89,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 10,1 % i fermer xo'jaliklariga, 89,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 17,7 % i fermer xo'jaliklariga, 60,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 22,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

### **2025- yilning 1- iyul holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	<b>Yirik shoxli qoramollar</b>	<b>Qo'y va echkilar</b>	<b>Parrandalar</b>
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>1107,9</b>	<b>958,5</b>	<b>9025,7</b>
Farg'ona shaxar	22,4	17,9	503,5
Qo'qon shaxar	6,7	10,9	55,7
Quvasoy sh	35,4	26,8	946,9
Mapg'ilon sh	10,6	15,5	225,6
tumanlar:			
Oltiariq	78,8	48,7	313,8
Qo'shtepa	63,5	60,3	690,4
Bag'dod	78,6	71,4	777,7
Buvayda	74,0	65,1	352,4
Beshariq	90,0	70,5	1013,3
Quva	79,9	88,4	411,9
Uchko'prik	71,2	51,8	569,0
Rishton	66,2	61,7	359,8
So'x	25,3	26,4	91,0
Toshloq	59,8	54,7	350,0
O'zbekiston	71,9	67,1	436,3
Farg'ona	83,2	57,3	757,3
Dang'ara	89,7	62,9	476,1
Furqat	61,0	48,7	392,6
Yozyovon	39,7	52,4	302,4

### **VI. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar**

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi** – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari



yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari** – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiyamatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

**Fermer xo'jaligi** – ijara berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektidir.

**Dehqon xo'jaligi** – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

**Tomorqa xo'jaligi** – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishslash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

**Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar** – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblanadi.

**Mollar bosh soni** – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdag'i chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

**Go'sht yetishtirish** – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdag'i qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznni o'z ichiga oladi.

**Sut yetishtirish** – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

**Tuxum yetishtirish** – barcha turdag'i parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

#### Metama'lumot uchun havola:

<https://farstat.uz/uz/nashrlar/press-relizlar.html>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit  
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

S. Sultonov  
73 241-98-30

Manzil:

